

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№7

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2025
IYUL



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



UZBEKISTAN

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr,
204 sahifa, iyul, 2025-yil.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi

- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Yashil ish o'rinlari va ekologik ta'lim: o'zbekiston yoshlari uchun yangi imkoniyatlar	12
Rashidov Saidislom, Zaripova Mardona	
Soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlash holatlarining informatsion assimetriyaga ta'siri	16
Babanazarova Nilufar Xolmatovna	
Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda budget mablag'laridan foydalanish mexanizmining o'rni va ahamiyati	23
Rustamova Gulmira Aliqulovna	
Dasturiy mahsulotlar logistikasi	30
Uzaqov Ortik Shaymardanovich	
Banklarda moliyaviy barqarorligini ta'minlashda moliyaviy natijalar ahamiyati	35
Djalilov G'ayrat Qaxramanovich	
Oliy ta'lim muassasalarini "yashil universitet" tizimiga transformatsiya qilish istiqbollari (buxoro davlat texnika universiteti va malayziyaning oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlik misolida)	39
Rahmatov Shuxrat Axatovich	
Davlat qarzi siyosati samaradorligini oshirish orqali makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash	43
Sayfutdinov Xasanboy Dilshodovich	
Оптимизация бизнес-процессов и модернизация занятости в условиях цифровизации	47
Явкачев Шохзод Зайниддин углы	
Strategik rivojlanish sharoitida investitsion jozibadorlikning o'rni	54
Otaboyev Axmed Maxsudbek o'g'li	
Kichik biznes subyektlarini moliyalashtirishni rag'batlashtirish	61
Annaklichev Saxi Saparmuxamedovich	
Альтернативный подход к распределению финансовых ресурсов для эффективного финансирования высшего образования	65
Гулшат Карлибаева	
Banklarda moliyaviy barqarorligini ta'minlashda moliyaviy natijalar ahamiyati	70
Djalilov G'ayrat Qaxramanovich	
O'zbekistonda jahon sivilizatsiyasiga ta'sir o'tkaza oladigan zamonaviy qarashlarga ega memolarning yetishmasligi	74
Nabiyev Hamidjon Mirzo o'g'li	
General Concept and Principles of Quality Management System	78
Atamirzayev Nodirbek Bekmirzayevich	
Transformatsiya jarayonida tijorat banklarining kreditlash faoliyatini rivojlantirish	84
Absamatov Anvar Ergashovich	
Интегральный показатель отбора экспертов для принятия коллегиальных диагностических решений	94
Uraqov Shokir Ulashovich	
Korxona faoliyatini tahlil qilishda boshqaruv hisobining roli	100
Abdurasulov Xumoyun Jalil o'g'li, Axmedov Xasan Ruzibayevich	
Raqamli iqtisodiyot va buxgalteriya hisobini tashkil etish	107
Abdullayev Abdurauf	
Moliyaviy hisobotni transformatsiya qilish	112
Sheraliyev Xayrulla Karimovich	
O'zbekiston sharoitida raqamli transformatsiyaning makroiqtisodiy indikatorlarga ta'siri	116
Samarqand davlat uiversiteti, Kuldoshev Lazizjon Sharifovich	



Raqamli iqtisodiyotning turizm sohasidagi bandlik shakllariga ta'siri.....	120
Rasulova Muxabbat Teshabayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
Xalqaro moliya-kredit institutlari bilan hamkorlikning xorij tajribasi.....	126
Qosimov Bobur Sobirovich	
Jahonda moliyaviy munosabatlar rivojlanishida korporativ tuzilmalar faoliyatining o'rni	131
Kurbaniyazov Shaxzodbek Karimovich	
Iqtisodiyotning real sektor subyektlarining faoliyatini moliya-kredit mexanizmlari orqali rag'batlantirishning xalqaro tajribasi	136
Mahmudov Nurali Komilovich	
O'zbekiston sharoitida raqamli transformatsiyaning makroiqtisodiy indikatorlarga ta'siri	140
Sanakulova Iroda, Kuldoshev Lazizjon Sharifovich	
Sho'r suvni chuchuklashtirish uchun absorber sifatida foydalanilgan quyosh elementlari tuzilmasining tajriba sinov tahlillar	144
Tursunov Muxamad Nishanovich, Sabirov Xabibullo, Axtamov Tohir Zuxriddinovich, Abriyev Shaxzod Akbar o'g'li, Bobomuratov Sardor Abdurasul o'g'li	
Развитие банков в системе цифровых финансовых услуг в Республике Узбекистан.....	151
Даденова Гульхан Кенесбаевна	
Внедрение экологических стандартов в транспортной системе: проблемы и перспективы	156
Абдурахманова М.Т.	
Elektron o'quv kontenti orqali mustaqil ta'lim va tadqiqot faoliyatini rivojlantirish	162
Ahunova Tamannoxon Zokir qizi	
Raqamli transformatsiya sharoitida davlat va xususiy sektorda korporativ boshqaruv strategiyasini yangilash: O'zbekiston modeli	167
Tojialiye Sherdorbek Elmurod o'g'li, Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li	
Jismoniy shaxslar uchun aksiyalar bozoriga kirish strategiyalari va investitsiya imkoniyatlari: O'zbekiston va xalqaro tajriba tahlili	171
O'raqov Bekzodbek Abdurayxon o'g'li	
Energetika tarmog'ida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini (mhxs) joriy etishning nazariy asoslari	176
Uralov Temur Boxodir O'g'li	
Nodavlat notijorat tashkilotlarini mablag'larini shakllanishi va nazorat qilinishi	181
Xolbekov Ulug'bek Toshpulat o'g'li	
Oliy ta'lim muassasalarining xalqaro reyting ko'rsatkichlarini oshirishning strategik boshqaruv mexanizmlari	185
Mamajonova Muxlisaxon Muzaffar qizi	
Economic Efficiency of Digital Twin and Bim Technologies in Construction Enterprises.....	189
Nigmatjonova Nozima Ulmasjonovna	
Uzumchilikka ixtisoslashgan xo'jaliklarning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari	197
Tursunov To'liqin Jo'raqulovich	



UZUMCHILIKKA IXTISOSLASHGAN XO'JALIKLARNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI



Tursunov To'liqin Jo'raqulovich

Navoiy viloyati, O'simliklar karantini va himoyasi boshqarmasi
rahbariyat boshliq o'rinbosari
ORCID: 0009-0004-0775-8751

Annotatsiya: Ushbu maqolada uzumchilikka ixtisoslashgan xo'jaliklar faoliyatida iqtisodiy samaradorlikka ta'sir etuvchi omillar tahlil qilingan. Intensiv agrotekhnologiyalar, qayta ishlash infratuzilmasi va klasterlashgan boshqaruv modellari asosida iqtisodiy samaradorlikni oshirish yo'llari ilmiy asosda yoritilgan. Xulosalarga tayangan holda, uzumchilik tarmog'ini raqobatbardosh va eksportbop sohalardan biriga aylantirishga qaratilgan amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Uzumchilik, iqtisodiy samaradorlik, klaster, qo'shimcha qiymat, qayta ishlash, intensiv texnologiyalar, eksportbop mahsulot.

Abstract: This article analyzes the factors influencing the economic efficiency of farms specialized in viticulture. The study scientifically substantiates ways to improve efficiency through the implementation of intensive agrotechnologies, development of processing infrastructure, and cluster-based management models. Based on the findings, practical recommendations are proposed to transform the viticulture sector into a competitive and export-oriented industry.

Keywords: viticulture, economic efficiency, cluster, added value, processing, intensive technologies, export-oriented product.

Аннотация: В данной статье проведён анализ факторов, влияющих на экономическую эффективность деятельности хозяйств, специализирующихся на виноградарстве. Научно обоснованы пути повышения эффективности на основе внедрения интенсивных агротехнологий, развития инфраструктуры переработки и кластерной модели управления. На основе сделанных выводов разработаны практические предложения по превращению виноградарства в одну из конкурентоспособных и экспортно-ориентированных отраслей.

Ключевые слова: виноградарство, экономическая эффективность, кластер, добавленная стоимость, переработка, интенсивные технологии, экспортно-ориентированная продукция.

KIRISH.

Bugungi globallashuv va raqobat sharoitida agrar sohani rivojlantirish, xususan, uning strategik tarmoqlari hisoblangan ixtisoslashgan qishloq xo'jaligi yo'nalishlarining iqtisodiy samaradorligini oshirish masalasi alohida dolzarblik kasb etmoqda. O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligini barqaror va samarali rivojlantirish — iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, hududiy iqtisodiy imkoniyatlarni to'liq ishga solish, aholi bandligini ta'minlash hamda eksport salohiyatini oshirishda muhim o'rin tutadi.

Aynan shunday tarmoqlardan biri — uzumchilik bo'lib, u nafaqat yurtimizning tabiiy-iqlim sharoitlariga mosligi, balki uzoq yillik an'analar, madaniy meros va bozordagi talab-ehtiyoj nuqtayi nazaridan ham yuqori salohiyatga ega. Bugungi kunda uzum mahsulotlari nafaqat ichki bozorda, balki jahon bozorida ham muhim o'rin egallab, yuqori qiymatli agrar eksport mahsuloti sifatida e'tirof etilmoqda.

Shu bilan birga, uzumchilikka ixtisoslashgan xo'jaliklarning iqtisodiy faoliyati ko'plab omillarga bog'liq bo'lib, ularning samaradorligi qishloq xo'jaligida resurslardan oqilona foydalanish, innovatsion yechimlar joriy etish, klasterlashtirish va bozor infratuzilmasiga integratsiya darajasi bilan bevosita bog'liqdir. Xususan, fermer

va klaster shaklidagi ixtisoslashgan xo'jaliklarning iqtisodiy ko'rsatkichlari, daromadliligi va bozorda raqobatbardoshlik darajasini tahlil qilish orqali soha istiqbollarini baholash mumkin.

Shu asosda, ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi — uzumchilikka ixtisoslashgan xo'jaliklarning iqtisodiy samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, mavjud muammolarni tahlil qilish va samaradorlikni oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI.

O'zbekiston uzumchilik sohasida iqtisodiy samaradorlikni oshirish maqsadida amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyatli bo'lishi birinchi navbatda klaster tizimining samarali tashkil etilishiga bog'liq. Klasterlashgan boshqaruvning nazariy va amaliy jihatlar borasida N.Boltayev tomonidan olib borilgan tadqiqotda uzumchilik xo'jaliklarida qo'shimcha qiymat zanjirini shakllantirish orqali samaradorlikni oshirishning asosiy mezonlari yoritilgan. Unda klasterlar orqali infratuzilmaviy yechimlar, qayta ishlash salohiyati va eksport imkoniyatlari mustahkam bog'langan holda tahlil qilingan [1].

N.Boltayevning boshqa bir tadqiqotida klasterlashgan iqtisodiy modelni to'liq nazariylashtirib, samaradorlikka ta'sir etuvchi ko'rsatkichlarni — xarajatlar optimallasuvi, resurslardan foydalanish koeffitsiyenti va daromadlilik darajasi kabi mezonlar orqali hisoblash uslublarini ilgari surgan. Bu yechimlar aynan hududiy sharoitlarda qo'llash uchun mo'ljallanganligi bilan ahamiyatli [2].

Iqtisodiy mexanizmlarni yanada to'liqroq qamrab olgan holda B.I. Isroilov va I.S. Ochilov tomonidan taqdim etilgan maqolada klaster tashkil etishdagi tashkiliy-huquqiy muammolar va ularni bartaraf etish mexanizmlari ochib berilgan. Ushbu manbada xalqaro tajribalar bilan taqqoslash asosida O'zbekistondagi institutsional shart-sharoitlar tahlil qilingan va klaster ishtirokchilari o'rtasida samarali kooperatsiya mexanizmlari tavsiya qilingan [3].

Shuningdek, X.Urdushev va boshqalar tomonidan yozilgan maqolada qishloq xo'jaligida klaster tizimining iqtisodiy salohiyatga ta'siri tahlil qilingan. Mualliflar, xususan, mehnat unumdorligi, hududiy salohiyat va qayta ishlash infratuzilmasi bilan bog'liq omillar orqali klasterning iqtisodiy samaradorlikdagi rolini ochib berishga uringan [4].

T.N. Iminov va boshqalarning tadqiqotida esa klasterlashgan xo'jaliklarning eksport imkoniyatlari, bozor integratsiyasi va institutsional qo'llab-quvvatlash choralari keng yoritilgan. Ushbu maqolada xususiy sektor va davlat o'rtasidagi sheriklik mexanizmlari va ularning uzumchilik tarmog'idagi samaradorlikka ta'siri ko'rsatilgan [5].

Keyingi muhim manba N.Burxonov va M.Xudoyarova tomonidan tayyorlangan bo'lib, u o'zbek agrar klasterlaridagi soliq siyosati, imtiyozlar va ularning iqtisodiy natijalarga ta'sirini tadqiq etadi. Ushbu tadqiqot moliyaviy barqarorlik va davlat tomonidan rag'batlantirish mexanizmlari iqtisodiy samaradorlikka qanday ta'sir ko'rsatayotganini chuqurroq ochib beradi [6].

Uzumchilik sohasida iqtisodiy samaradorlikni oshirishda xorijlik olimlarning ham o'rni katta. Masalan: Maykl Porterning klasterlar nazariyasi muhim manba hisoblanadi. Uning "Competitive Advantage of Nations" asarida tarmoqlararo kooperatsiya, hududiy yakdillik va innovatsiya drayverlarini klaster asosida birlashtirish orqali raqobatbardoshlikni oshirish mumkinligi asoslangan. Bu nazariya uzumchilikda klasterlashgan boshqaruv modelini joriy etish zarurligini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi [7].

Avstriyalik va amerikalik iqtisodchi, siyosatshunos, sotsiolog hamda iqtisodiy fikrlar tarixi bo'yicha taniqli olim Jozef Shumpeterning "Theory of Economic Development" asarida innovatsiya, texnologik yangilanish va tadbirkorlikni iqtisodiy o'sishning asosiy drayverlari sifatida ta'riflaydi. Uning ta'kidicha, har qanday iqtisodiy samaradorlik innovatsion yechimlarsiz mukammal rivojlanishi mumkin emas. Bu g'oya uzumchilikda intensiv agrotexnologiyalarni joriy etishning zarurligini asoslab beradi [8].

Oliver Uilyamsonning "The Economic Institutions of Capitalism" nomli asarida tranzaksion xarajatlar nazariyasi yoritilgan bo'lib, bozor munosabatlari samaradorligining institutsional muhitga bog'liqligi asoslab berilgan. Ushbu nazariya asosida o'zbek uzumchiligida infratuzilmaviy cheklovlar, logistika muammolari va institutsional yetishmovchiliklar iqtisodiy samaradorlikka to'sqinlik qilmoqda, degan xulosa chiqarish mumkin [9].

FAO va OECD kabi xalqaro tashkilotlarning qishloq xo'jaligi sohasidagi tahlillarida qo'shimcha qiymat yaratish zanjiri, qayta ishlash, eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish va marketing yo'nalishlari uzoq muddatli samaradorlikni ta'minlashning asosiy shartlari sifatida qayd etilgan. Jumladan, FAOning "Value Chain Development for Decent Work" hisobotida qayta ishlash orqali mahsulotning bozordagi qiymati kamida 1,5–2 barobarga oshirilishi mumkinligi ta'kidlangan [10].

Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti bo'yicha amerikalik iqtisodchi mutaxassis Maykl Kremerning "O-Ring Theory" nazariyasida yuqori samaradorlikka erishish uchun barcha ishlab chiqarish bosqichlarida sifatli va uyg'un faoliyat talab etilishi ta'kidlangan. Bu nazariya uzumchilik xo'jaliklarida infratuzilma, ta'lim, tex-



nologiya va bozor mexanizmlari o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni asoslab beradi [11].

Shu tariqa, mavjud adabiyotlar tahlilidan xulosa qilish mumkinki, uzumchilik sohasida iqtisodiy samaradorlikka erishish muammosi nafaqat milliy, balki xalqaro iqtisodiy-tadqiqot doiralarida ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xalqaro darajadagi taniqli iqtisodchilar — J. Schumpeter, M. Porter, O. Williamson va M. Kremerning nazariy qarashlari, FAO kabi tashkilotlarning qishloq xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha tavsiyalari uzumchilikda klasterlashgan boshqaruv, innovatsiya, kooperatsiya va infratuzilmani rivojlantirishda ilmiy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, N. Boltayev, B. Isroilov, X. Urdushev, T. Iminov, N. Burkhanov kabi mahalliy tadqiqotchilarning amaliy yo'naltirilgan ishlari mamlakatimizda uzumchilik klasterlarini tashkil etish, huquqiy va institutsional mexanizmlarni takomillashtirish, resurslardan samarali foydalanish va eksport salohiyatini oshirish masalalarida aniq yechimlar taklif etmoqda.

Xorijiy nazariyalar va milliy amaliyotning uyg'un tarzda tahlili mazkur sohada kompleks va innovatsion yondashuvni shakllantirish, jahon tajribasini mahalliy sharoitlarga integratsiya qilish va uzumchilik xo'jaliklarini barqaror rivojlantirishga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda respublikadagi uzumchilik sohasining umumiy holati, iqtisodiy samaradorlikka ta'sir etuvchi omillar va tarmoq infratuzilmasi tahlil qilindi. Tahlil jarayonida rasmiy statistik ma'lumotlar, sohaviy hisobotlar, normativ-huquqiy hujjatlar hamda ilmiy manbalardan foydalanildi. Shuningdek, kuzatish, tavsiflash, solishtirish va iqtisodiy-statistik tahlil usullari asosida umumlashtirilgan xulosalar chiqarilib, sohani rivojlantirish bo'yicha nazariy va amaliy takliflar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'tkazilgan tahlil natijalari uzumchilikka ixtisoslashgan xo'jaliklarning iqtisodiy samaradorligi ko'p omilli va o'zaro bog'liq parametrlar ta'sirida shakllanishini ko'rsatmoqda. Avvalo, hududlararo mahsulot yetishtirishdagi farqlar agrar tarmoqdagi hududiy ixtisoslashuv darajasining shakllanishini va uning iqtisodiy natijalarga ta'sirini namoyon etmoqda. Masalan, 2022-yilda respublikada 1,76 mln tonna uzum yetishtirilgan bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich 1,7 mln tonnaga tushib, 1,3%lik pasayish qayd etilgan. Bunday dinamika, avvalo, iqlim o'zgari-shi, suv resurslarining tanqisligi, agrotexnik xizmat ko'rsatishdagi yetishmovchiliklar kabi xavflar mavjudligidan dalolat beradi. Bu omillar hozirgi paytda uzumchilik xo'jaliklarining samaradorligini belgilab berayotgan tashqi va ichki omillar miqyosidagi zaif zvenolar sifatida namoyon bo'lmoqda.

Ikkinchidan, iqtisodiy samaradorlikning mezonlari sifatida qo'llaniladigan rentabellik, mahsulot tannarxi va gektarga to'g'ri keladigan mahsulodkorlik kabi ko'rsatkichlar keskin farqlanmoqda. Zamonaviy agrotexnologiyalar asosida faoliyat yurituvchi klaster xo'jaliklarida rentabellik darajasi 25–30% atrofida bo'lsa, an'anaviy usuldagi dehqon xo'jaliklarida bu ko'rsatkich 10–15%dan oshmaydi. Mos ravishda, yuqori texnologiyali xo'jaliklarda har gektardan 20–25 tonna mahsulot olinayotgan bo'lsa, ekstensiv tarzda faoliyat yurituvchi xo'jaliklarda bu miqdor 8–12 tonnadan oshmaydi. Bu esa texnologik divergensiya holatining mavjudligini va rivojlanishning ikki xil trayektoriyasini anglatadi.

Uchinchidan, qayta ishlash infratuzilmasi va logistika obyektlarining mavjudligi xo'jaliklarning umumiy daromadi hamda mahsulotga qo'shimcha qiymat qo'shish koeffitsiyentiga bevosita ta'sir etmoqda. Aniq tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, qayta ishlash infratuzilmasiga ega bo'lgan klasterlarda qayta ishlash darajasi 35–40%ga yetgan. Bu esa mahsulotning ichki va tashqi bozordagi raqobatbardoshligini oshiradi. Mos ravishda, klaster xo'jaliklarida eksportbop tayyor mahsulotlarning (vino, kishmish, sharbat) ulushi sezilarli oshmoqda.

To'rtinchidan, eksport salohiyati tahlili uzumchilikning tashqi bozordagi mavqeini baholash imkonini berdi. Jumladan, 2022-yilda O'zbekiston uzum eksporti bo'yicha jahonda 9-o'rinni egallagan bo'lsa, 2023-yilda 20-o'ringa pasaygan. Bu pasayishning sabablari sifatida mahsulot assortimentining cheklanganligi, xalqaro sertifikatlash standartlariga mos kelmaslik, logistika xarajatlarning yuqoriligi va institutsional cheklovlar ko'rsatilmoqda. Bu kabi muammolarning hal qilinishi global talablarga javob beradigan klasterlashgan eksport strategiyasini shakllantirishni talab etmoqda.

Beshinchidan, hududiy salohiyat tahlili Samarqand (666,1 ming tonna), Farg'ona (179,1 ming tonna), Buxoro (232,4 ming tonna) va Namangan (160,8 ming tonna) viloyatlarida uzumchilik an'anaviy rivojlangan sohalardan biri ekanligini va bu yerda klasterlashuv imkoniyatlari yuqori ekanligini ko'rsatdi. Aholi bandligi, agrobiznes subyektlari o'rtasidagi kooperatsiya va qayta ishlash salohiyati jihatdan mazkur hududlar klasterlashuv markazlari sifatida qaralishi mumkin.

Oxir-oqibat, olib borilgan tahlillar shuni tasdiqlamoqdaki, uzumchilikda iqtisodiy samaradorlikni oshirish — resurslardan maqsadli foydalanish, texnologik modernizatsiya, bozor talablariga muvofiq mahsulot turlarini diversifikatsiya qilish, va klaster asosida tashkil etilgan ishlab chiqarish-eksport tizimlarini rivojlantirish orqali amalga oshishi mumkin.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, iqtisodiy samaradorlik ko'p qirrali (multidimensional), tarmoqlararo (inter-sectoral) va institutsional (institutional) omillar ta'sirida shakllanadi. Shunday ekan, uzumchilik tarmog'ini rivojlantirish bo'yicha siyosatni ishlab chiqishda faqatgina ishlab chiqarish ko'lamiga emas, balki agrar sektorning mezo va makro darajadagi transformatsiya modellariga asoslangan ilmiy yondashuv zarur hisoblanadi.

Avvalo, uzumchilik xo'jaliklarining rentabellik darajasiga ta'sir qiluvchi asosiy omillardan biri — intensiv va ekstensiv yetishtirish usullari o'rtasidagi samaradorlik farqi hisoblanadi. Jahon amaliyoti shuni ko'rsatmoqdaki, yuqori daromadli agrar tarmoqlar mahz yuqori hosilli, tez yetiladigan va bozorbop navlarga asoslangan bo'ladi (Porter, 1998). O'zbekiston sharoitida esa bu usul hanuz to'liq joriy etilmagan. Intensiv texnologiyalardan foydalanilgan xo'jaliklarda 1 gektardan 20-25 tonna uzum olish mumkin bo'lsa, an'anaviy usullarda bu ko'rsatkich 8-12 tonna atrofida. Bu esa har gektarga to'g'ri keluvchi valyuta tushumi, ishchi kuchi unumdorligi va umumiy rentabellikda katta nomutanosiblik yaratadi.

Ikkinchidan, qayta ishlash va qo'shimcha qiymat yaratish zanjiri uzumchilik xo'jaliklarining iqtisodiy salohiyatini to'liq namoyon etish imkonini beradi. Ayni paytda mamlakatimizdagi klaster shaklidagi xo'jaliklar mavjudligini hisobga olgan holda, ularda mahsulotni qayta ishlash (vino, sharbat, sirka, kishmish) orqali qo'shimcha qiymatni 30–40% gacha oshirish imkoniyati mavjud. Xalqaro tashkilotlar (FAO, OECD) tomonidan e'tirof etilgan qoidaga ko'ra, agrar sektorda qo'shimcha qiymat asosan qayta ishlash bosqichida shakllanadi va bu umumiy daromadni kamida 1,5–2 barobarga oshirish imkonini beradi.

Uchinchidan, infratuzilmaviy cheklovlar, jumladan, sovutgich omborlar, logistika markazlari, sertifikatlash xizmatlari yetishmasligi, uzumchilik mahsulotlarining eksport salohiyatiga to'sqinlik qilmoqda. Hatto yuqori hosil olingan holatlarda ham uni sifatli saqlash va qayta ishlash imkoniyati mavjud emasligi sababli, iqtisodiy samara past bo'lib qolmoqda. Mazkur holat Williamson (1985) tomonidan nazariy asoslangan "tranzaksion xarajatlar nazariyasi"ga to'la mos keladi — bu nazariyaga ko'ra, bozor samaradorligi aynan institutsional sharoitlar va infratuzilmaning rivojlanganligi bilan chambarchas bog'liq.

To'rtinchidan, kadrlar tayyorlash va ilm-fanni joriy qilish darajasi yetarli emas. Sohada zamonaviy agrotexnologiyalarni qo'llash, seleksiya ishlari va agrobiznes menejmentini boshqarish sohalarida yetarlicha malakali mutaxassislar yetishmaydi. Iqtisodiyotdagi "innovatsion o'zgarishlar nazariyasi"ga ko'ra (Schumpeter, 1934), har qanday iqtisodiy o'sish va samaradorlikni oshirish jarayonida ilm-fan, texnologiya va tadbirkorlik markaziy o'rin tutadi. Demak, uzumchilik xo'jaliklarida ilmiy yondashuvlarning yetishmasligi iqtisodiy samaradorlikni cheklayotgan asosiy omillardan biridir.

Beshinchidan, hududiy salohiyatdan to'liq foydalanilmayotgani, ixtisoslashuv darajasi va tabiiy-iqlim sharoitlari hisobga olinmagan holda yetishtirish amaliyotining joriy etilishi ko'plab resurslar samarasiz sarflanishiga olib kelmoqda. Mahsulotning sifatli, raqobatbardosh bo'lishi uchun hududiy differentsiatsiya va klasterlashgan ishlab chiqarish muhim ahamiyatga ega. Hududlararo mehnat taqsimotini optimallashtirish, resurslarni regional miqyosda samarali taqsimlash — iqtisodiy samaradorlikning asosiy drayverlaridan biridir.

Nihoyat, tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni ta'minlash, global standartlarga mos sertifikatlash, tijoratbop navlarni kengaytirish va xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish bilan chambarchas bog'liq. Ayniqsa, sanoatbop navlarni eksportbop standartlarga muvofiq yetishtirish, mahsulotga marketing qo'shilishi va geografik belgilar asosida brandlashtirish strategiyalari iqtisodiy samaradorlikni orttirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, uzumchilikka ixtisoslashgan xo'jaliklarning iqtisodiy samaradorligini oshirish masalasi mamlakat agrar siyosatining strategik yo'nalishlaridan biriga aylanishi zarur. Bugungi kunda global bozorlarda raqobatbardosh bo'lish, qishloq xo'jaligi sohasida eksportbop mahsulot turlarini ko'paytirish va yuqori qo'shimcha qiymatli ishlab chiqarishni ta'minlash dolzarb vazifalardan sanaladi. Bu esa, o'z navbatida, iqtisodiy, texnologik va institutsional o'zgarishlarni talab etadi.

Birinchi xulosa — iqtisodiy samaradorlikni oshirishning asosiy omili bu resurslardan oqilona foydalanish hamda intensiv ishlab chiqarish usullarini keng joriy etishdir. Intensiv agrotexnologiyalar, yuqori hosilli va tez yetiladigan uzum navlari, suv tejovchi sug'orish tizimlari hamda yuqori darajada mexanizatsiyalashtirilgan mehnat — xo'jaliklarning rentabellik darajasini 25–30% gacha oshirish imkonini yaratadi. Bu esa tannarxni pasaytiradi, bozor raqobatida ustunlikni ta'minlaydi.

Ikkinchi xulosa — qayta ishlash infratuzilmasini rivojlantirmasdan iqtisodiy samaradorlikni mukammal ta'minlash mumkin emas. Mahsulotni qayta ishlash orqali qo'shimcha qiymatni shakllantirish — Schumpeter'ning innovatsion rivojlanish nazariyasi nuqtayi nazaridan olib qaralganda — iqtisodiy o'sishning hal qiluvchi drayverlaridan hisoblanadi. Uzun mahsulotlarini (kishmish, sharbat, sirka, vino va b.) sanoatbop qayta ishlash tarmoqlari joriy etilishi, ushbu sektorni eksport yo'nalishiga moslashtirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Uchinchi xulosa — klasterlashgan boshqaruv modeli va kooperatsiya mexanizmlari uzumchilikda yuqori samaradorlikni ta'minlashda institutsional asos sifatida namoyon bo'ladi. Zamonaviy agrobiznesda klaster



tizimi orqali ishlab chiqarish, qayta ishlash, logistika va marketing faoliyatlari o'zaro bog'liq holda yuritilishi natijasida barqaror daromad, eksport salohiyati va soliq tushumlari ortishi ta'minlanadi.

To'rtinchi xulosa – bozor mexanizmlariga integratsiyalash va xalqaro talablarga mos mahsulot yetishtirish — xo'jaliklar samaradorligining tashqi determinantlaridan hisoblanadi. Xalqaro sertifikatlash, ekologik tozalik, organik yetishtirish standartlari, nav turlarini diversifikatsiya qilish va marketing strategiyalarini joriy etish orqali uzumchilikda eksportboplikni ko'paytirish mumkin.

Beshinchi xulosa – ilm-fan va innovatsion yechimlarsiz barqaror iqtisodiy samaradorlikka erishish mumkin emas. Agrar sohada amaliy tadqiqotlar natijalarini ishlab chiqarishga joriy etish, raqamli texnologiyalardan foydalanish, bilimli mutaxassislarni tayyorlash va ularni xo'jaliklarda jalb qilish ustuvor vazifa bo'lib qolmoqda.

Oxir-oqibat, uzumchilikka ixtisoslashgan xo'jaliklarda iqtisodiy samaradorlikni oshirish ko'p bosqichli strategiyani talab etadi. Bu strategiya quyidagi asosiy yo'nalishlar asosida shakllantirilishi lozim:

Intensiv ishlab chiqarish va resurs tejovchi agrotexnologiyalardan keng foydalanish;

Qayta ishlash va eksportbop mahsulotlarga ixtisoslashish;

Klasterlashgan boshqaruv va kooperatsiyani kengaytirish;

Bozor talablariga mos nav turlari seleksiyasini rivojlantirish;

Ilmiy tadqiqotlarni ishlab chiqarish bilan integratsiya qilish.

Aynan mana shu yo'nalishlar bo'yicha tizimli yondashuvni shakllantirish orqali O'zbekiston uzumchiligi nafaqat ichki bozor ehtiyojini qondirish, balki jahon bozorida mustahkam o'rin egallash salohiyatiga ega bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Boltayev N. ClusterOriented Strategies for the Integration and Diversification of Uzbekistan's Viticulture Sector // EPRA International Journal of Climate and Resource Economic Review. 2025. Vol. 13, № 5. URL: <https://eprajournals.com/IJCI/article/16481>
2. Boltayev N. Strategic Integration and Diversification in the Viticulture Sector: A ClusterBased Approach to Sustainable Development // EPRA International Journal of Agriculture and Rural Economic Research. 2025. Vol. 13, № 5. URL: <https://eprajournals.com/IJIR/article/16006>
3. Isroilov B. I., Ochilov I. S. Improvement Of Organizational And Economic Mechanisms Of Organization Of Vine Clusters // The American Journal of Social Science and Education Innovations. 2021. Vol. 3, № 08. URL: <https://theamericanjournals.com/index.php/tajssei/article/view/1168>
4. Urdushev X., Eshankulov S., Mavlyanov M. The Role of Clusters in Increasing the Economic Potential of Agricultural Enterprises // Science and Innovative Development. 2021. Vol. 4, № 3. URL: <https://ilmfanjournal.csti.uz/index.php/journal/article/view/88>
5. Iminov T. N., Kurganov Kh. R., Abdulatifova A. The Role and Importance of Fruit and Vegetable Clusters in Economic Development // EPRA International Journal of Agriculture and Rural Economic Research. 2021. Vol. 9, № 4. URL: <https://eprajournals.com/IJIR/article/4679>
6. Burkhanov N., Khudayarova M. Agricultural Clusters in the Republic of Uzbekistan and Their Impact on Tax Policy // International Journal of Artificial Intelligence. 2025. Vol. 5, № 06. URL: <https://www.academicpublishers.org/journals/index.php/ijai/article/view/5048>
7. Porter M. E. The Competitive Advantage of Nations. – New York: Free Press, 1990. – 875 p. URL: https://www.hbs.edu/faculty/Publication%20Files/competitive_advantage_of_nations_eea82d71-bd16-42f5-bcfc-0d12fa86b861.pdf
8. Schumpeter J. A. The Theory of Economic Development: An Inquiry into Profits, Capital, Credit, Interest, and the Business Cycle. – New York: Harvard University Press, 1934. – 255 p. URL: <https://archive.org/details/theoryofeconomic00schu>
9. Williamson O. E. The Economic Institutions of Capitalism. – New York: Free Press, 1985. – 450 p. URL: <https://www.worldcat.org/title/economic-institutions-of-capitalism/oclc/11784950>
10. FAO. Value Chain Development for Decent Work: A Guide for Development Practitioners, Government and Private Sector Initiatives. – Rome: FAO, 2015. – 125 p. URL: <https://www.fao.org/3/i5461e/i5461e.pdf>
11. Kremer M. The O-Ring Theory of Economic Development // Quarterly Journal of Economics. – 1993. – Vol. 108, № 3. – P. 551–575. URL: <https://academic.oup.com/qje/article-abstract/108/3/551/1882552>
12. O Fayziyev, D Aminboyeva. Qishloq xo'jaligida bioresurslar asosida mahsulot yetishtirishning iqtisodiy ahamiyati. Eurasian journal of Law, Finance and Applied Sciences (May 2023). – Tashkent, 2023. – Volume 3. – Issue 5. – P. 164-167 (UIF = 8.3. SJIF = 5.961) (ISSN 2181-2853)
13. Fayziyev O.R., Saidov M.H., Abduraxmonova N.I. / Agrar sektorni rivojlantirishda resurslar salohiyatidan foydalanishning hozirgi holati tahlili / Eurasian journal of Law, Finance and Applied Sciences (December 2022). – Tashkent, 2022. – Volume 2. – Issue 13. – P. 275-279 (UIF = 8.3. SJIF = 5.961)

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100